

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

MUSTAFAKULOV O'KTAM UNGBOYEVICH

**STATISTIKA TIZIMIDA RAQAMLI PLATFORMALARNI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH USLUBIYOTI**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Mustafakulov O'ktam Ungboyevich

Statistika tizimida raqamli platformalarni samaradorligini oshirish
uslubiyoti 3

Мустафакулов Уктам Унгбоевич

Методика повышения эффективности цифровых платформ в
статистической системе 27

Mustafakulov Uktam Ungboyevich

Methodology for increasing the effectiveness of digital platforms in the
statistical system 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

MUSTAFAKULOV O'KTAM UNGBOYEVICH

**STATISTIKA TIZIMIDA RAQAMLI PLATFORMALARNI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH USLUBIYOTI**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2328 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich

iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Mo'minov Bahodir Boltayevich

texnika fanlari doktori, professor

Kenjabaev Aman Turg'unovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

T.S. Qo'chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon hamjamiyatining ko'zlangan rivojlanish va farovonlikka erishish uchun raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning rag'batlantiruvchi kuchi sifatida ustuvorlik berishliqligi namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda raqamli platformalar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Iqtisodiy o'sishning faollashuvi, dunyo aholisi yashash darajasining yaxshilanishi tadbirkorlar va korxonalar uchun iste'molchilar va yetkazib beruvchilar bilan innovatsion usullarda aloqa o'rnatish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy marketing sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan raqamli platformalarning turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo'llanishi ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Xalqaro amaliyotda raqamli platformalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati mijozlar va yetkazib beruvchilarga murojaat qilish uchun ushbu platformalardan foydalanayotgan korxonalar soni ortib borayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlar, xususan, AQSH, Kanada, Islandiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Avstraliya, Daniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Norvegiya, Avstriya, Germaniya, Isroil, Niderlandiya, Yaponiya kabi davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot tarmoqlari va yo'nalishlarida statistika sohasida ilg'or AKTdan samarali foydalanish tufayli, nafaqat ma'lum bir tarmoq rivojlanishining real manzarasini baholash, balki uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari ham rivojlantirish imkonini bermoqda.

Yangi O'zbekistonda bugungi kunda statistika sohasi milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim strategik yo'nalishi sifatida tarmoqning samarali faoliyat yuritishi nafaqat milliy iqtisodiyotning barcha sub'ektlari faoliyati to'g'risida xolis statistik ma'lumotlarni olishga, balki mamlakatning jahon iqtisodiy makonida raqobat bardoshligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Bu jarayonda sanoat ishlab chiqarishini, qishloq xo'jaligini, ta'limni, sog'liqni saqlashni, xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholini himoya qilishga qaratilgan fundamental va amaliy fanlar bo'yicha yuqori sifatli ilmiy yutuqlarni olish imkonini beruvchi ilg'or AKTdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda prognozlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsadli dasturlari, barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlarini belgilaydi, aholi farovonligi va mamlakatning jahon xo'jalik bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" Milliy dasturini amalga oshirish doirasida yangi uslubiy yechimlar, texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlarni yig'ishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Bundan tashqari, mamlakatimizda statistika tizimida raqamli platformalarni joriy etish va rivojlantirish hali boshlang'ich bosqichda.

Shakllanayotgan raqamli muhit sharoitida elektron tijorat platformalarini takomillashtirish, uning statistik tizimdagi potentsial afzalliklarini aniqlash va ularni amalga oshirish metodologiyasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlarga ijtimoiy ehtiyoj mavjud.

Mazkur dissertatsiya tadqiqotining natijalari, olingan xulosalar va ishlab chiqilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 son, 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son farmonlari, 2018-yil 21-sentabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi 5544-son, 2020-yil 17-martdagi "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4642-son, 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4699-son, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-sentabrdagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 690-son qarorlarida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqotining mavzusi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ikkita ustuvor yo'nalishiga mos keladi:

I. "Demokratik-huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish";

IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish".

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy va mahalliy mualliflarning salmoqli ilmiy ishlari statistika tizimida raqamli platformalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Statistika tizimida raqamli platformalardan samarali foydalanish nazariyasini rivojlantirishga X. Bai, F.M. Alshammary, H. Abuhassna, R.A. Baron, M. Xammer, S. Barakat, U. Eshbi va boshqalar munosib hissa qo'shishgan. Bundan tashqari, A.K. Thomer, N. Koldri va A. Pauell kabi olimlarning ishlarida statistika tizimida raqamli platformalar bazasini shakllantirish tushunchasining ko'p tomonlama tahlili olib borilib, bu tushunchaning ilmiy tadqiqotlarda paydo bo'lishining tarixiy xronologiyasi ham ko'rsatilgan. Olimlar F. Rossetti, R. Mozer va V. Rayli¹ ijtimoiy jarayonlarni modernizatsiya qilishda raqamli platformalarni joriy etish imkoniyatlari va zarur texnologiyalarini o'rganib chiqishgan.

Rossiyalik olimlar D.V. Minayev, M.A. Bulgakova, N.V. Sevostyanov, V.M. Glazyev, A.I. Glushkov, V.P. Dolzhenko, Kosarev, S.P. Kutsenko, A.N. Romanov, Yu.F. Telnov, G.A. Titorenko, V.V. Zinchenko, V.V. Trofimov, E.V. Shkarupet o'z ilmiy izlanishlarida statistika tizimida raqamli platformalardan samarali foydalanish

¹ Bai X., Li J. Intelligent platform for real-time page view statistics using educational big data digital resource sharing //Journal of Intelligent & Fuzzy Systems. – 2021. – T. 40. – №. 2. – C. 2851-2860; Alshammary F. M., Alhalafawy W. S. Digital Platforms and the Improvement of Learning Outcomes: Evidence Extracted from Meta-Analysis //Sustainability. – 2023. – T. 15. – №. 2. – C. 1305; Abuhassna H. et al. Development of a new model on utilizing online learning platforms to improve students' academic achievements and satisfaction //International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2020. – T. 17. – C. 1-23; Nambisan S., Baron R. A. On the costs of digital entrepreneurship: Role conflict, stress, and venture performance in digital platform-based ecosystems //Journal of Business Research. – 2021. – T. 125. – C. 520-532; Barakat S. et al. Evaluating the role of digital intervention design in treatment outcomes and adherence to eTherapy programs for eating disorders: A systematic review and meta-analysis //International Journal of Eating Disorders. – 2019. – T. 52. – №. 10. – C. 1077-1094; Thomer A. K., Wickett K. M. Relational data paradigms: What do we learn by taking the materiality of databases seriously? //Big Data & Society. – 2020. – T. 7. – №. 1. – C. 2053951720934838; Couldry N., Powell A. Big data from the bottom up //Big Data & Society. – 2014. – T. 1. – №. 2. – C. 277; Duch-Brown N., Rossetti F. Digital platforms across the European regional energy markets //Energy Policy. – 2020. – T. 144. – C. 111612; Duch-Brown N., Rossetti F. Digital platforms across the European regional energy markets //Energy Policy. – 2020. – T. 144. – C. 111612.

masalalarini o'rganishga, shuningdek, raqamli platformlar asosida texnologik mexanizmlarni ishlab chiqishga qayta-qayta murojaat qilmoqdalar.

Mamlakatimizda statistika tizimida raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar S.S. Gulyamov, A.A. Abidov, A.T. Shermukhamedov, I.S. Tolibov, B.Q. G'oyibnazarov, A.X. Ayubov, A.M. Rahmatullayevna, Z. Akbarova, T.Sh. Chodiev, B.Yu.Xodiyev, G. Kuldosheva, R.X. Alimov, A. Almurodov, R.A. Fayziev, Sh.T. Ergasheva, N.M. Mahmudov, A.M. Jumaev, S.O. Homidov, P.A. Allayarov² va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi statistika tizimida raqamli platformalar samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq taklif va amaliy konseptlar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: statistika tizimida raqamli platformalarni joriy qilishning nazariy jihatlarini o'rganish;

raqamli platformalarni statistika tizimiga qo'llash bo'yicha jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rganish;

O'zbekiston statistika tizimida mavjud raqamli platformalarning hozirgi holatini o'rganish va tahlil qilish;

statistika tizimida joriy etiladigan raqamli platformalarni tanlash metodologiyasini ishlab chiqish;

statistika tizimida raqamli platformalardan foydalanish metodologiyasini yaratish;

statistika tizimida raqamli platformalar samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash;

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Toshkent viloyati sitatistika boshqarmasi tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti statistika tizimida raqamli platformalar bilan bog'liq ma'lumotlar va ularning tahlili hamda foydalanish uslubiyotini o'z ichiga oladi..

Tadqiqotning usullari. Ushbu dissertatsiya ishida statistik kuzatish, guruhlash, solishtirish, statistik tanlovlar, induksiya, deduksiya, SWOT tahlil, korrelatsion-regression tahlil, qiyosiy taqqoslash, matematik-statistika va ekonometrika usullari qo'llanilgan.

² Минаев Д. В. Опыт реализации проектного подхода для подготовки магистров с использованием цифровой платформы управления проектами //редакционная коллегия. – 2022. – С. 58; Abidov A. Diagnostics of the state and recovery of real time systems performance //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 238-241; Булгакова М. А. Формирование системы обеспечения экономической безопасности лесного комплекса России: дис. – Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2021; Севостьянов Н. В. Разработка модели платформенных решений в сфере информатизации государственной службы: магистерская диссертация. – 2022; Зинченко В. В. Цифровизация как фактор устойчивого развития компании: магистерская диссертация. – 2020; Gulamov S. S., Shermukhamedov A. T. Digital economy in the Republic of Uzbekistan: Development of the electronic government //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 347-354; Tolibov I. S. Modern state and the priority directions of further development of economy of Uzbekistan in the conditions of globalization //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2017. – Т. 10. – №. 54. – С. 176-185; Rakhmatullaeva A. M. Effective use of digital technologies in the statistical system //Academia Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 10. – С. 198-207; Kuldosheva G. Challenges and Opportunities for Digital Transformation in the Public Sector in Transition Economies: The Case of Uzbekistan //Harnessing Digitalization for Sustainable Economic Development. – 2022. – С. 365.

Ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “raqamli platformalar samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqamli platformalarning undan foydalanuvchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati, ishlash tezligi, xavfsizligi hamda innovatsion yechimlarni tatbiq etish qobiliyatini o‘z ichiga oluvchi o‘z vazifalarini bajarish darajasi va resurslardan samarali foydalanish ko‘rsatkichi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

Statistika agentligining SIAT axborot tizimiga sun‘iy intellektni integratsiyalash orqali ma‘lumotlarni tahlil qilish samaradorligini (TQS=20%), tizimdan foydalanuvchilar sonini (TFS=10%), ma‘lumotlarni tahlil qilish aniqligini (TQA=15%) oshirish hamda metadata yaratish haftalik muddatini tejash (MYAM=20 soat) chegaralari asoslangan;

Statistika agentligi Toshkent viloyati boshqarmasida axborot tizimi faoliyatini yaxlit baholash metodologiyasiga ko‘ra boshqa davlat tashkilotlarining statistika faoliyatini integratsiyalovchi yangi raqamli platformani joriy etish orqali samaradorligini oshirish asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi statistika tizimida raqamli platformalarning samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2028 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

statistika sohasiga raqamli tahliliy platformani joriy etish zarurligi asoslab berildi, uning faoliyati asosida maxsus texnologik va dasturiy yechimlar yordamida yakuniy foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan statistik ma‘lumotlarning ishonchliligi, shaffofligi va ochiqligi ta‘minlandi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi yagona axborot tizimining statistika sohasining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlovchi asosiy tarkibiy bo‘linmalari taklif etilmoqda;

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” Milliy dasturini amalga oshirish doirasida idoralararo axborot almashinuvini optimallashtirishning yangi texnologik mexanizmlari taqdim etildi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi axborot xavfsizligi tizimini takomillashtirish va agentlikning boshqa davlat organlari faoliyati integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan yangi dasturiy ta‘minot konsepti ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qat‘iy tadqiqot usullarini qo‘llash, ma‘lumotlar manbalarini triangulyatsiya qilish va ekspert xulosalarini qo‘llash orqali ta‘minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati .Tadqiqot natijalarining ilmiy shundan iboratki, dissertatsiya tadqiqoti davomida ishlab chiqilgan ilmiy natijalar, taklif etilayotgan metodlar, texnologiyalar va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasining statistika faoliyatida raqamli platformalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirishda foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan innovatsion yondashuvlar, mexanizmlar, algoritmlar va texnologiyalar statistika sohasida davlat statistika hisobotlarini taqdim etishda, web-xizmatlar bilan ishlash jarayonida va O‘zbekiston Respublikasining statistika faoliyatidagi axborot tizimlarida qo‘llanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Statistika tizimiga raqamli platformalarni joriy qilish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "raqamli platformalar samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini raqamli platformalarning undan foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati, ishlash tezligi, xavfsizligi hamda innovatsion yechimlarni tatbiq etish qobiliyatini o'z ichiga oluvchi o'z vazifalarini bajarish darajasi va resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichi nuqtayi nazaridan takomillashtirish taklifi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Raqamli iqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda raqamli platformalarning o'z vazifalarini bajarish darajasi va resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan raqamli platformalar samaradorligi tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

Statistika agentligining SIAT axborot tizimiga sun'iy intellektni integratsiyalash orqali ma'lumotlarni tahlil qilish samaradorligini (TQS=20%), tizimdan foydalanuvchilar sonini (TFS=10%), ma'lumotlarni tahlil qilish aniqligini (TQA=15%) oshirish hamda metadata yaratish haftalik muddatini tejash (MYAM=20 soat) chegaralarini qo'llash taklifi Statistika agentligining 2024-2025-yillarda statistika tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish dasturiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil 14-iyundagi №01/1-02-10-571-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agentlikning SIAT platformasida ma'lumotlarni tahlil qilish samaradorligini 20% ga oshirish, tizimdan foydalanuvchilar sonining 10% ga oshirish, metadata yaratishda haftasiga 20 soat tejash, ma'lumotlarni tahlil qilish aniqligini 15% ga oshirish imkoniga ega bo'lishi aniqlangan;

Statistika agentligi Toshkent viloyati boshqarmasida axborot tizimi faoliyatini yaxlit baholash metodologiyasiga ko'ra boshqa davlat tashkilotlarining statistika faoliyatini integratsiyalovchi yangi raqamli platformani joriy etish orqali samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Toshkent viloyati statistika boshqarmasida 2024-2025-yillarda bosqichma-bosqich joriy etish dasturiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil 14-iyundagi №01/1-02-10-571-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agentlikning kelajakda platformalar faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan 250 mln. so'm miqdorida ortiqcha xarajatlarni tejab qolish imkoniga ega bo'lishi aniqlangan;

O'zbekiston Respublikasi statistika tizimida raqamli platformalarning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan Toshkent viloyati statistika boshqarmasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil 14-iyundagi №01/1-02-10-571-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida agentlikka 3 yilda umumiy 835 582 268 so'm miqdorida foyda keltirishi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari jami 7 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e’tirof etgan jurnallarda 10 ta, xalqaro 3 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma’ruza va tezislarni nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat bo’lib, uning umumiy hajmi 152 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zurligi asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, ob’ekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar talab darajasida keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Raqamli platformalarni ishlab chiqishning ilmiy–nazariy asoslari”** deb nomlanib, raqamli platformalarni o‘rganishning nazariy asoslari, raqamli platformalarni ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi va statistika tizimida raqamli platformalarni joriy etishdagi xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish yo‘llari yoritib o‘tilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, so‘nggi uch yilda, O‘zbekiston milliy statistikasining butun tizimini tubdan o‘zgartirdi. O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar nafaqat statistik ma’lumotlarning mazmuniga, balki ularni taqdim etish shakllariga ham yangi talablarni qo‘ydi.

Raqamli platforma – bu foydalanuvchilar o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuv jarayonlarini tezlashtiradigan va osonlashtiradigan vebga asoslangan tizimli dasturiy ta’minot to‘plami.³ Raqamli platformalar raqamli bozorlarga xizmat qiladi, shu bilan birga jismoniy mahsulotlarni taklif qiladi. Raqamli platformalar iste’molchilar, ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar kabi turli foydalanuvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqalar va tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi onlayn tizimlardir. Ushbu platformalar tovarlar, xizmatlar va ma’lumotlar almashinuvini ta’minlaydigan raqamli infratuzilmani ta’minlaydi. Raqamli platformalar kontseptsiyasi so‘nggi yillarda tez rivojlandi va turli sohalar va bozorlar ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil platformalar paydo bo‘ldi.

Elektron tijorat platformalari odamlarning xarid qilish va biznes yuritish usullarini inqilob qildi. Ular mijozlarga tovarlar va xizmatlarni onlayn xarid qilishning qulay va samarali usulini taqdim etadi, shu bilan birga korxonalariga global bozorlarga chiqish va mijozlar bazasini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlarni taklif etadi.

³ Yousif A. et al. NASQAR: a web-based platform for high-throughput sequencing data analysis and visualization //Bmc Bioinformatics. – 2020. – T. 21. – №. 1. – C. 1-14.

Elektron tijorat platformalari, shuningdek, korxonalariga o'z faoliyatini soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish yo'lini taklif qiladi. Mahsulotlarni onlayn sotish orqali korxonalar jismoniy do'konlarga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etishi va ijara, kommunal xizmatlar va xodimlar bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, elektron tijorat platformalari ko'pincha inventarizatsiyani boshqarish, buyurtmalarni qayta ishlash va jo'natish vositalarini taqdim etadi, bu esa korxonalariga o'z operatsiyalarini boshqarish va mijozlar buyurtmalarini bajarishni osonlashtiradi.

Biroq, elektron tijorat platformalarining o'sishi raqobat, ma'lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq xavotirlarni ham keltirib chiqardi. Ba'zi tanqidchilarning ta'kidlashicha, yirik elektron tijorat platformalari juda ko'p bozor kuchiga ega va o'z ustunligidan kichikroq korxonalariga zarar yetkazish uchun foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, mijozlar ma'lumotlarini to'plash va ulardan foydalanish, shuningdek, kiberhujumlar va ma'lumotlarning buzilishi xavfi haqida xavotirlar mavjud.

Iqtisodiyotni almashish platformalari, shuningdek, tengdoshlar orasidagi bozorlar sifatida ham tanilgan, jismoniy shaxslar o'rtasida tovarlar va xizmatlar almashish yoki almashishni osonlashtiradigan elektron tijorat platformalarining bir qismidir. Ushbu platformalar ko'pincha jismoniy shaxslarga zaxira xonalari, avtoulavlari yoki hatto o'z vaqtlari va ko'nikmalari kabi to'liq foydalanilmagan aktivlarini monetizatsiya qilish yo'lini taqdim etadi.

Iqtisodiyot platformalarini almashish so'nggi yillarda tobora ommalashib bormoqda, chunki ular jismoniy shaxslarga o'z aktivlari yoki ko'nikmalaridan foydalangan holda qo'shimcha daromad olish yoki pulni tejash yo'lini taqdim etadi. Ushbu platformalar, shuningdek, iste'molchilarga an'anaviy muqobillarga qaraganda arzonroq yoki qulayroq bo'lishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlarga kirish yo'lini taqdim etadi. Biroq, iqtisodiy platformalarni almashish, shuningdek, tartibga solish, raqobat va xavfsizlik bilan bog'liq muammolarga duch keldi. Misol uchun, ba'zi mahalliy hukumatlar uy-joyning arzonligi va mahalla xarakteriga ta'siri haqidagi xavotirlarni bartaraf etish uchun Airbnb orqali taklif qilinadiganlar kabi qisqa muddatli ijaraga oid qoidalarni o'rnatdilar. Bundan tashqari, ba'zi an'anaviy korxonalar iqtisodiy platformalarni almashishni adolatsiz raqobatda ayblashdi, boshqalari xavfsizlik va javobgarlik haqida tashvishlanishdi.

OECD jahon statistika tizimida raqamli platformalarning o'rni va ulardan foydalanish imkoniyatlari haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Ular jahon miqyosidagi tahlil, tushunchalar va strategiyalar yaratishda bizning fikrimizni rivojlantirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Jahon statistika tizimida raqamli platformalar, bir nechta mamlakatlarda statistika to'plamalari, ma'lumotlar omborlari va analitik vositalarni o'z ichiga olgan tizimlardir. Ular o'zlariga xos tizimlar, dastur va infrastrukturani o'z ichiga oladi va statistik ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish, nazorat qilish va ma'lumotlarni taqsimlashning yanada samarali usullarini ta'minlaydi. Bu raqamli platformalar yordamida jahon bo'ylab ma'lumotlar to'planishi, saqlanishi, tahlil qilinishi va bo'ylabgina rivojlanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga asoslangan global tahlil va moliyaviy o'qibatlar aniqlanishi imkoniyatlari yuzaga keladi. Ushbu platformalar jahon tajribasini jamlab o'z ichiga olganligi sababli qulaylik va effektivlikni oshiradi.

Dunyoda mavjud bo'lgan eng yirik statistika tizimi platformalarni o'rganish bizning tadqiqotimiz maqsadiga erishishda muhim o'rin tutadi va kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun qo'l keladi(1-jadval).

1-jadval

Dunyoda mavjud eng yirik statistika tizimi platformalari⁴.

Platforma nomi	Jahon statistika tizimida o'rni
World Bank Open Data	Jismoniy va iqtisodiy ko'rsatkichlar, ma'lumotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha jahon bo'ylab ma'lumotlarni to'plash, saqlash va taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Bizning davlatimizda ham shu platformadan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lib, oliy o'rgatish va tadqiqot ishlari uchun muhim manba sifatida foydalanilmoqda.
United Nations Statistics Division	Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tashkil etilgan statistika tizimi, jahon bo'ylab statistik ma'lumotlarni to'plash, taqsimlash, tahlil qilish va tarqatishda katta rol o'ynaydi. Bizning mamlakatimizda ham UMT statistika tizimidan kelib chiqqan ma'lumotlar va hisobotlar, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda ishlaydigan kurashlarga yordam berishda muhim ahamiyatga ega.
International Monetary Fund (IMF)	Jahon moliyaviy tahlil va tashkilotning qonuniy ma'lumotlari, moliyaviy ko'rsatkichlar, iqtisodiy barqarorlik va boshqalar bo'yicha statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bizning davlatimiz ham IMF statistika ma'lumotlaridan foydalanish orqali moliyaviy sohalarni rivojlantirish va boshqarishda rahbarlik qilmoqda.

Bu ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda "World Bank Open Data", "United Nations Statistics Division", "International Monetary Fund" kabi jahoniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan platformalar o'rnini egallaydi. Ular jahon bo'ylab statistik ma'lumotlarni jamg'armoqda va ularning ularga o'tkazilishi va samaradorligi mavjud. 1-jadvalda yuqorida ta'kidlangan dunyodagi eng yirik statistika tizimi platformalari va ularni o'rni keltirilgan. Bu jadvalda keltirilgan platformalar jahon bo'ylab statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda katta ahamiyatga ega. Ular bilan hamkorlik qilish orqali bizning mamlakatimizda ma'lumotlar asosida iqtisodiyotni rivojlantirish, huquqiy va siyosiy qarorlarni qabul qilish, ijtimoiy sohada ishlab chiqilayotgan strategiyalar va kurashlarda yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari yuzaga keladi.

O'zbekiston statistika tizimida raqamli platformalar o'sishiga doir ma'lumotlar, 2010-2023 yillar oralig'ida yig'ilgan ma'lumotlar asosida taqdim etilgan. Raqamli platformalar, statistik ma'lumotlarni to'plash, saqlash, tahlil qilish va ma'lumotlardan foydalanishning bir nechta asosiy yo'llarini o'z ichiga olgan. Quyidagi raqamli platformalar O'zbekiston statistika tizimida katta ahamiyatga ega hisoblanadi:

1. SIAT (Statistik integratsiyalashgan axborot tizimi). SIAT O'zbekiston Respublikasidagi asosiy statistik portal hisoblanadi. Ushbu platforma mamlakat haqidagi keng qamrovli statistik ma'lumotlar, indekslar, tahlillar va boshqa ma'lumotlarga elektron kirish imkonini beradi. SIAT ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va taqdim etishda muhim o'rin tutadi. Uning funkcionalligi va onlayn foydalanish imkoniyati SIATni iqtisodiy rivojlanish monitoringi va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ajralmas vositaga aylantiradi.

⁴World Health Organization et al. Trends in maternal mortality 2000 to 2017: estimates by WHO, UNICEF, UNFPA, World Bank Group and the United Nations Population Division. – 2019.

2. STATA - bu ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun ishlatiladigan kuchli statistik platforma. O'zbekiston statistika tizimi kontekstida STATA kompleks statistik tadqiqotlar o'tkazishda, iqtisodiyot, demografiya va ijtimoiy soha kabi turli sohalarda yuqori aniqlikdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda muhim rol o'ynashi mumkin. STATA integratsiyasi tizimning statistik tahlili va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

3. e-Stat 4.0 – O'zbekiston statistika tizimida statistik ma'lumotlarni elektron yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun innovatsion platforma. Bu tizim statistik hisobotlarni elektron shaklda samarali to'plash uchun maxsus ishlab chiqilgan. Platformada ma'lumotlar yig'ish jarayonlarini avtomatlashtirish, yuborilgan hisobotlarning holatini avtomatik baholash va tegishli ma'lumotlardan tezkor foydalanish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalarga e'tibor qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, e-Stat 4.0 ning asosiy maqsadi statistik hisobotlarni elektron tarzda yig'ishni osonlashtirishdir.

Har biri o'ziga xos uslub va tuzilmaga ega bo'lgan ushbu uchta raqamli platforma O'zbekiston statistika tizimida muhim o'rin tutib, ilmiy tadqiqotlar uchun ma'lumotlarni samarali qayta ishlash va taqdim etish, iqtisodiy rivojlanish monitoringi va jamiyat hayotining boshqa jihatlarini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston statistika tizimida raqamli platformalarni tadqiq etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda raqamli platformalar qo'llanilishining hozirgi holati, statistika tizimida platformalarni tanlash metodologiyasi va raqamli platformalarni ishga tushirish mexanizmi haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Statistika tizimida qo'llanilayotgan raqamli platformalar yordamida olinayotgan ma'lumotlar hamda ularni qayta ishlangan sifat ko'rsatkichlari statistik tahlillar uchun foydali bo'lishi va ularning muhokama qilinadigan xususiyatlarining ko'rsatilishi bilan ham baholanadi.

2-jadval.

Statistika tizimida mavjud raqamli platformalarni baholash uchun namuna formati⁵

Raqamli platforma	Xususiyatlar va imkoniyatlar	Ma'lumotlar yig'ish	Ma'lumotlarni tahlil qilish	Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish	Ma'lumotlarni tarqatish
Platforma A	Mobil ilova orqali real vaqtda ma'lumotlarni yig'ish	Ha	Ha	Ha	Ha
Platforma B	Tasdiqlash qoidalari bilan veb-ga asoslangan ma'lumotlarni kiritish shakllari	Ha	Ha	Yo'q	Ha
Platforma C	Tashqi ma'lumotlar manbalari va API bilan integratsiya	Ha	Ha	Ha	Ha
Platforma D	Kengaytirilgan statistik tahlil va modellashtirish imkoniyatlari	Ha	Ha	Ha	Ha

⁵ Asadullah A., Faik I., Kankanhalli A. Digital Platforms: A Review and Future Directions //PACIS. – 2018. – C. 248.

Statistika tizimning ma'lumotlarga bo'lgan aniq ehtiyojlari va talablari o'rganilib aniqlangandan so'ng, keyingi qadam mavjud raqamli platformalarni ushbu ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini aniqlash imkoniyatini beruvchi jarayon platformalarni baholashdir. Bu baholash jarayonini tadqiqotimizda ko'rsatish uchun, quyidagi statistika tizimida mavjud platformalarni baholash uchun namuna formati keltirib o'tildi (2-jadval).

Raqamli platformalar to'plamidan ma'lumotlar olish, ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish, statistik modellarni yaratish va tahlil qilish, olingan natijalardan foydalanish, ma'lumotlar vizualizatsiyasi va xulosa chiqarish kabi jarayonlar tushunilgan. Ushbu jarayonlarda matematik statistika, axborotlar analitikasi, ma'lumotlar manbalaridan foydalanish va boshqa metodlardan foydalaniladi.

Har qanday sohaga joriy qilinadigan platformalar uchun ularning tuzilishi (arxitekturasini) juda muhim hisoblanadi. Statistika tizimi uchun raqamli platforma strukturasi namunasini 3-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

3-jadval.

Statistika tizimi uchun raqamli platforma strukturasi namunasi⁶

Komponent	Tavsifi
Ma'lumotlar manbalari	So'rovlar, ma'muriy ma'lumotlar bazalari, tashqi ma'lumotlar
Ma'lumotlar integratsiyasi	ETL (Extract, Transform, Load) jarayonlari
Ma'lumotlarni saqlash	Markazlashtirilgan bulutga asoslangan ma'lumotlar bazasi
Ma'lumotlarni qayta ishlash	Statistik algoritmlar, mashinani o'rganish modellari
Ma'lumotlarni o'zgartirish	Ma'lumotlarni tozalash, tekshirish, standartlashtirish
Ma'lumotlar sifatini nazorat qilish	Xatolarni aniqlash, tasdiqlash tekshiruvlari
Xavfsizlik choralari	Kirishni boshqarish, shifrlash, ma'lumotlarni anonimlashtirish
Tashqi integratsiya	Davlat ma'lumotlar bazalari bilan ma'lumotlar almashinuvi uchun API
Hisobot va chiqish	Statistik hisobotlar, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, asboblari paneli

4-jadvalda esa statistik tizimning raqamli platformasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan UI/UX elementlariga misol keltirilgan:

4-jadval.

Statistik tizimning raqamli platformasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan UI/UX elementlari⁷

UI/UX elementi	Tavsif
Intuitiv navigatsiya	Oson navigatsiya uchun aniq va intuitiv menyu tuzilishi
Interaktiv boshqaruv paneli	Ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish uchun interaktiv vizualizatsiya
Foydalanuvchi uchun qulay shakllar	Ma'lumotlarni yig'ish va kiritish uchun qulay shakllar
Javob beruvchi dizayn	Turli ekran o'lchamlari va qurilmalariga moslashtirilgan dizayn
Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish	Ma'lumotlarni vizual formatda taqdim etish uchun grafikalar, diagrammalar va xaritalar
Kontekst yordami	Yo'l-yo'riq uchun ekrandagi maslahatlar yoki kontekstli yordam
Moslashtirilgan interfeys	Foydalanuvchilar uchun asboblari paneli tartibini sozlash imkoniyati

⁶ Ang K. L. M., Ge F. L., Seng K. P. Big educational data & analytics: Survey, architecture and challenges //IEEE access. – 2020. – T. 8. – C. 116392-116414.

⁷ Alomari H. W. et al. A User Interface (UI) and User eXperience (UX) evaluation framework for cyberlearning environments in computer science and software engineering education //Heliyon. – 2020. – T. 6. – №. 5.

Foydalanuvchiga dizayn yondashuviga rioya qilish va ushbu UI/UX elementlarini o‘z ichiga olgan holda, statistik tizim raqamli platformaning intuitiv, foydalanuvchilarga qulay bo‘lishini ta‘minlaydi va umumiy foydalanuvchi tajribasini oshiradi. UI/UX dizaynini doimiy takomillashtirish uchun dizayn va ishlab chiqish jarayonida doimiy foydalanuvchi sinovlari va fikr-mulohazalarini yig‘ish zarur.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekiston statistika tizimida raqamli platformalarning samaradorligini oshirish uslubiyati”** deb nomlanib, unda O‘zbekiston statistika tizimida mavjud raqamli platformalarning tahlili, O‘zbekiston statistika tizimida yangi raqamli platforma konseptini ishlab chiqish va statistika tizimida raqamli platformalarni samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil etilgan. O‘zbekiston statistika tizimi uchun yangi raqamli platformaning yaratilishi axborot muhitidagi tez o‘zgarishlar va zamonaviy jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liq.

5-jadval.

Yangi raqamli platformaning konseptual asoslari⁸


№	Asosiy konseptlar	Ta‘rifi
1	Foydalanuvchi interfeysi	Platformaning intuitiv va foydalanuvchi qulayliklari tushunilgan. Foydalanuvchilar platforma bilan osonlik bilan ishlashi mumkin.
2	Ma‘lumotlarni to‘plash	Platforma turli manbalardan ma‘lumotlarni olish, avtomatik ravishda to‘plab olish va o‘zaro bog‘liq ma‘lumotlar to‘plarini integratsiya qilishga imkoniyat beradi.
3	Ma‘lumotlarni tahlil qilish	Platformada statistik analizlar, grafiklar, tahlil asboblari va vizualizatsiya vositalari keng qo‘llanilishi ta‘minlanadi. Ma‘lumotlarning tahlili va tushunchalarni osonlashtirish uchun yorqin tahlil funktsiyalari mavjud.
4	Ma‘lumotlarni tarqatish va ularga kirish	Platformaning ma‘lumotlarni kirish va tarqatish yo‘nalishlari ustida qulayliklar ta‘minlanadi. Ma‘lumotlar amaliyotga solish, ularga kirishni nazorat qilish va ularda yangi ma‘lumotlarni qo‘shish imkoniyatlari kengaytiriladi.
5	Xavfsizlik va maxfiylik	Platforma ma‘lumotlarni xavfsiz saqlash va maxfiylikni ta‘minlashga qaratilgan xavfsizlik protokollari va himoyalash tizimlari bilan muhofaza qilinadi.
6	Integratsiya va bog‘liqlik	Yangi platforma O‘zbekiston statistika tizimiga yuqori darajada integratsiya qilinadi, bu sayda turli ma‘lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar va bog‘liq sohalar orqali ma‘lumotlarga oson va tezlik bilan kirish imkoniyatini beradi.
7	Skalalar va boshqa funktsiyalar	Platformada skalalar va boshqa funktsiyalar ishlatish imkoniyati yaratiladi, bu sayda ma‘lumotlarni qayta ishlash, qo‘shimcha o‘zgaruvchanliklarni kiritish va ma‘lumotlarni aniq ko‘rish imkoniyatini ta‘minlayadi.

Yangi platforma orqali bu statistika ma‘lumotlari to‘plami amalga oshirilganida, O‘zbekistondagi barcha mahallalar haqidagi axborotlar yagona joyda to‘planib saqlanadi. Shu bilan birga, yangi platforma orqali O‘zbekistondagi mahallalarning iqtisodiy holatiga doir statistika ma‘lumotlariga samarali va hujjatli murojaat qilish, tahlil va monitoring qilish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu davlat boshqaruvining ma‘lumotlarga qisqa va samarali qo‘llashini ta‘minlaydi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi va qo‘shimcha tadqiqotlar hamda loyihalar uchun asosiy manba bo‘ladi. Ushbu yangi platforma O‘zbekiston statistika tizimida

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

ma'lumotlarni tahlil va prognozlashning samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi, unda qo'llanilishi kutilayotgan ta'minlangan texnologiyalari va metodlari , ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash, foydali bilgilar, tendensiyalar, munosabatlar va prognozlar olish jarayonlarini osonlashtirishga yordam beradi. Statistika tizimining ajralmas qismiga aylangan raqamli platformalar xizmatlari statistika tizimida keng joriy qilish orqali faoliyat samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi. O'zbekiston statistika tizimida yangi raqamli platforma konseptini ishlab chiqish jarayoni keltirib o'tilgan (5-jadval).

Biz quydagi O'zbekiston statistika tizimida qo'llanilishi kutilayotgan yangi platofromaning ishlash algoritimini taklif etildi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston statistika tizimida yangi raqamli platformaning algoritmi⁹

⁹ Muallif tomonidan taklif etildi.

Yangi raqamli platformaning dizayni zamonaviy va interaktiv xarakterga ega bo'lishi kerak, shuningdek, foydalanuvchilar uchun yuqori darajadagi tajriba taqdim etuvchi murakkab texnologiyalar bilan integratsiyalashtirilishi zarur. Dizaynda foydalaniladigan rang palitrasi zamonaviy va estetik jihatidan jozibador bo'lishi lozim. Asosiy fon yorqin, ammo to'g'ri ranglar: Light Grey (#F5F5F5) va Deep Ocean Blue (#0A1E30). Ularning ustiga kontrast ranglar bilan accent qilish: Neon Green (#39FF14) va Sunset Orange (#FF4500), bu esa harakatlantiruvchi elementlarga diqqatni qaratadi (2-rasm).



2-rasm. Yangi platformaning tashqi oynalari ko'rinishi¹⁰.


Ma'lumotlar tahlili bo'limida integratsiyalashgan yagona dashboard yaratish muhimdir. Bu yerda foydalanuvchilar uchun 3D grafiklar, ma'lumotlar vizualizatsiyasi va animatsiyalar yordamida haqiqiy vaqtli statistikalar taqdim etilishi lozim. AI-driven (sun'iy intellekt asosida) tahlil qurilmalari orqali foydalanuvchilar xulosa chiqarish va strategiyalarni yaratishda samarali yordam oladilar. Statistik natijalar kuchli analizlar, masalan, maqbul narxlar va tanga tizimidan foydalanish uchun foizlar, ayrilgan xarajatlar va ROI (Investitsiyalarning qaytimi) koeffitsientlari asosida ko'rsatilishi kerak. Hisobotlar bo'limidagi interfeysni yanada kuchaytirish uchun avtomatik hisobotlarni yaratish imkoniyatini integratsiyalash kerak.

Foydalanuvchilar tangalardan foydalanib, hisobotlarni o'zlarining xohishlariga ko'ra sozlangan formatlarda (masalan, PDF, XLS, HTML) olish imkoniyatiga ega

¹⁰ platforma muallif tomonidan ishlab chiqilgan

bo'lishlari zarur. Bunday hisobotlar interaktiv bo'lib, foydalanuvchilar ularga oddiy ko'rsatgichlar orqali bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni kiritishlari mumkin. Jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish maqsadli hisoblanadi, shuningdek, foydalanuvchilarga ma'lumotlarga oson kirish imkoniyatini taqdim etish ham muhim vazifadir.

Statistika tizimi uchun yangi platformani yaratish bu juda katta loyiha hisoblanadi. Chunki yangi platforma mavjudlariga nisobatan har tomonlama afzalliklarga ega bo'lishi zarur. Shuning uchun, dastlab platforma yaratishning umumiy loyiha boshqichlarini tuzib olamiz. Yangi platformani ishlab chiqish loyihasini amalga oshirilishi bir nechta faza bosqichlarni o'z ichiga oladi. Har bir faza o'z navbatida maxsus bir nechta bosqich asosida vazifalarni bajarish orqali realizatsiya qilinadi. 1-fazada loyihaning asosiy maqsadlari turli bosqichlar orqali belgilab olinadi (3-rasm).



3-rasm. Yangi platforma ishlab chiqish loyihasining 1-faza bosqichi¹¹.

Statistika tizimi uchun yangi raqamli platformaning maqsadlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yangi raqamli platforma O'zbekiston statistika tizimidagi turli sohalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni to'plab olish imkoniyatini beradi. Bu ma'lumotlar aholi demografik, iqtisodiy, sotsiologik, geografik, ta'lim, kasb-hunar va boshqa sohalarga oid bo'lishi mumkin. Platforma orqali ma'lumotlar avtomatik ravishda yig'iladi va qayta ishlash jarayoni avtomatlashtiriladi, shuningdek, ma'lumotlar yig'ilganligi to'g'risida iste'molchilar tezkor va osonlik bilan xabar qilinadi;


Yangi raqamli platforma to'planadigan ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri saqlash imkoniyatini beradi. Bu platformada to'plangan ma'lumotlar uzoq muddatda saqlanishi, arxivlashi va ularga oson hamda tezlik bilan kirish imkoniyatini ta'minlayadi. Bu shu

¹¹ Loyihaning blok-sxemasi muallif tomonidan ishlab chiqildi

bilan birga, ma'lumotlar ustida kerakli muhokama va tahlillarni olib borish, ma'lumotlarni tarqatish va ularga ko'p o'zgaruvchanliklarni qo'shish ham osonlashtiriladi (3-rasm);

Yangi raqamli platforma, to'plangan ma'lumotlarni tahlil etish uchun muhim asboblardan funksiyalarni taqdim etadi. Bu tahlil jarayoni orqali ma'lumotlardan statistik analizlar, grafiklar, infografikalar va boshqa vizualizatsiyalar yaratish imkoniyati beriladi. Bu, statistik ma'lumotlarning vizual ravishda o'qilishi, tahlili va tushunchalarni osonlashtirishi, ma'lumotlarning aniq va qulay ko'rishni ta'minlash imkoniyatini beradi;

Yangi raqamli platforma O'zbekiston statistika tizimi bilan integratsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Bu platforma orqali turli sohalar bo'yicha to'planadigan ma'lumotlar o'zaro bog'liqligini o'zgartiradi va ularga oson va tezlik bilan kirish imkoniyatini beradi. Bu statistika tizimning ma'lumotlarni samarali tarqatishini va ularda qo'shimcha imkoniyatlarni yaratishini ta'minlaydi. Bu jarayonlar yangi platforma loyihasining 2-faza platformani ishlab chiqish bosqichlari orqali belgilab olinadi (4-rasm).




4-rasm. Yangi platforma ishlab chiqish loyihasining 2-faza platformani ishlab chiqish bosqichi¹²

Xavfsizlik, maxfiylik va tartiblilikni ta'minlash. Yangi raqamli platforma, ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va tartiblilikni ta'minlashga qaratilgan. Statistika tizimiga foydalanish uchun ishlab chiqilgan yangi platforma yuqori darajada xavfsizlik protokollari va maxfiylik tamoyillarini o'z ichiga olishi bilan ajralib turadi, bu platformani ayniqsa ma'lumotlarni maxfiy va himoyalangan sahifalarda saqlanishi platforma xavfsizlik darajasini yanada oshiradi. Ushbu platformada tizim xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yib, xavfsiz kirish tizimi, autentifikatsiya va avtorizatsiya

¹² Loyihaning blok-sxemasi muallif tomonidan ishlab chiqildi

